



MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -

SHAVKAT MIRZIYOEYEVGA OVOZ BERING!



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

№ 20 (1208)
2023-yil 5-iyul
chiqarilgan
Adodi - 7 331



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SHAVKAT
MIRZIYOEYEV HINDISTON
RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI
NARENDRA MODINING TAKLIFIGA
BINOAN 4-iyul kuni SHHTGA
A'ZO DAVLATLAR RAHBARLARI
KENGASHINING VIDEOANJUMAN
SHAKLIDAGI NAVBATDAGI
MAJLISIDA ISHTIROK ETDI.

O'zbekiston bahs va mojarolarni hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha maqbul yechimlarni izlash va qarorlarni qabul qilishda

Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o'rin egallashi kerak, degan prinsipial pozitsiyaga rioya qiladi.

2, 3-betlar



**JAZOLASH
BILAN**
jinoyatning oldini
olib bo'lmaydi

6s



Qat'iyatli siyosat -
**YANGI
O'ZBEKISTON**
tanlagan yo'lni ko'rsatib
turibdi

7s



Nomzodning saylovoldi uchrashuvlarida

voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish, oilaviy munosabatlarning shakllanish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bunda mahallaning rolini oshirish lozimligi ta'kidlandi va bu partiyamiz g'oyalarga ham hamohangdir.

6s

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HAMKORLIK TASHKILOTIGA A'ZO DAVLATLAR

**Hurmatli rais!
Hurmatli delegatsiyalar
rahbarlari!**

Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida barcha ishtirokchilarni samimiy qutlashdan mamnunman. Hindiston Respublikasi Bosh vaziri janob Narendra Modiga bugungi uchrashuvimizni tashkil etgani uchun bildirilgan barcha minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman. Hindistonning SHHTga birinchi raisligi muvaffaqiyatli bo'lganini qayd etamiz. Samarqand sammitida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ko'p qirrali hamkorligimiz jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan ta'kidlab o'tmoqchiman. Biz tashkilotimizni yanada kengaytirish va isloh qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishni boshladik. Fursatdan foydalanib, Eron Islom Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirishi bilan bog'liq barcha tartib-taomil jarayonlari yakuniga yetgani va ushbu davlatning tashkilotga a'zo bo'lgani bilan Eron Prezidenti Ibrohim Raisiysga bildirilgan tabrikarga qo'shilaman. O'zbekiston, shuningdek, SHHTga a'zo davlat maqomini olish maqsadida Belarus Respublikasining majburiyatlari to'g'risida qabul qilinayotgan qarorni ham to'liq qo'llab-quvvatlaydi.

**Hurmatli majlis
ishtirokchilari!**

Barchamiz xalqaro munosabatlar tizimida davom etayotgan tub o'zgarishlarning guvohi bo'lib turibmiz. Afsuski, geosiyosiy keskinlik va mojarolarning kuchayishi kuzatilmoqda, global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo'lmoqda, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohalarida tahdidlar avj olmoqda. Shu munosabat bilan konstruktiv va ishonchli muloqotni yo'lga qo'yish o'tkir zaruratga aylanib borayotgani o'z-o'zidan ayondir. O'zbekiston barcha mojarolarni hal etish, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha maqbul yechimlarni

izlash va qarorlarni qabul qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti markaziy o'rin egallashi kerak, degan prinsipial pozitsiyaga rioya qiladi. Ta'kidlash joizki, o'zaro muloqot va ishonch borasidagi chora-tadbirlarni mustahkamlash maqsadida o'tgan yili umumiy xavfsizlik va farovonlik yo'lidagi birdamlik bo'yicha Samarqand tashabbusini ilgari surgan edik. Global miqyosda kun tartibida turgan eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ularning bepyon mintaqamizga ta'sirini baholash va o'zaro hamkorlikda takliflar ishlab chiqish maqsadida biz BMT, boshqa nufuzli xalqaro sheriklar bilan birgalikda mazkur Tashabbusning doimiy platformasini yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqdamiz.

Qadrli hamkasblar!

SHHT doirasidagi ko'p tomonlama va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidan borar ekanmiz, bugun biz tashkilotimizning muvaffaqiyati uning asosiy tamoyillariga qat'iy rioya etish asosida ta'minlanishini yaxshi tushunamiz. Bular – tashkilotning blokdan tashqari maqomi, ochiqlikka qat'iy sodiqlik, teng huquqlilik va qarorlarni konsensus asosida qabul qilish tamoyillaridir. Eng muhimi, bizning hamkorligimiz turli manfaatlar, yondashuvlar, qarashlar va tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi madaniy tafovutlarni o'zaro hurmat qilish va konstruktiv idrok etishga asoslanadi. SHHTni rivojlantirishning hozirgi bosqichida biz uning mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalarni hal qilishda samarali xalqaro tuzilma sifatidagi **yetakchilik rolini saqlab qolish va kuchaytirish juda muhim, deb hisoblaymiz.** Shu munosabat bilan tashkilot doirasida qabul qilingan kelishuv va qarorlarni inventarizatsiya qilish, hamkorlik institut va mexanizmlari faoliyatini auditdan o'tkazish, tashkilotimizni modernizatsiya qilish bo'yicha kelishuvlarning amalga oshirilishini jadallashtirishni

maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Milliy tahlil markazlarini birlashtirgan **Ekspertlar forumi doirasida SHHT istiqbollari bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihasini** amalga oshirishni ham taklif etamiz. Bunday ishlar natijalarini navbatdagi sammitimiz davomida ko'rib chiqishimiz mumkin. **Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!**

Bugungi uchrashuvimiz kun tartibidan kelib chiqib, SHHT doirasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha aniq takliflarimizni qayd etib o'tmoqchiman. **Birinchi.** Biz "Shanxay ruhi"ga muvofiq, tashkilot doirasida o'zaro hamjihatlik va anglashuvni mustahkamlashni hal qiluvchi vazifa deb bilamiz. Biz **SHHTning yaxshi qo'shnihilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini** ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqdamiz. Ushbu hujjatning qabul qilinishi

muddat davomida barqaror rivojlanishi uchun platforma va resurs bazasidir. Xarid qobiliyati pariteti bo'yicha jahon yalpi mahsulotining uchdan bir qismi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qariyb 27 foizi va jahondagi savdo hajmining 20 foizi SHHT ulushiga to'g'ri keladi. Tashkilotimizga a'zo davlatlar sanoat va innovatsion taraqqiyot ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchilik qiladi, ulkan intellektual salohiyatga, energetika va agrar sohada boy resurslarga ega. Shu munosabat bilan bugungi kunda ichki, ya'ni mintaqaviy savdo va sanoat-texnologik kooperatsiyani rivojlantirish uchun **umumiy makonni shakllantirish bo'yicha tashabbusni** ilgari surish har qachongidan ham dolzarbdur. Hukumatlarimiz va mutasaddi idoralarimizga SHHTning innovatsion taraqqiyot, raqamlashtirish va robotlashtirish, sun'iy intellekt, biotexnologiya, farmatsevtika va sanoatning boshqa istiqbolli

texnologiyalarning qo'shma ko'rgazmasi bilan birgalikda o'tkazish niyatidamiz. **Uchinchi.** SHHT makonida transport-kommunikatsiyaviy bog'liqlikni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish muhimdir. Hozirgi vaqtda biz Shimol-Janub va Sharq-G'arb magistral yo'llarini rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik loyihalarni faol ilgari surmoqdamiz. Shu borada Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihasi bo'yicha amaliy ishlar boshlanganini aytib o'tmoqchimiz. Biz ushbu yo'nalish bo'yib, shuningdek, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq bozorlariga olib chiqadigan Eron va Pokiston portlari tomon multimodal tashuvlarni rivojlantirmoqdamiz. Tahlilchilarning ma'lumotiga ko'ra, ushbu loyihalarni amalga oshirish yuk tashish hajmini bir necha barobar oshirish, shuningdek, transport xarajatlarini uchdan bir qismga kamaytirish imkonini beradi. SHHT davlatlarining **transport sohasidagi o'zaro bog'liqligiga doir yagona xaritani** ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu mavjud "to'siqlar" va "bo'shliqlar"ni aniqlash, umumiy, o'zaro integratsiyalashgan transport-tranzit tizimini shakllantirish uchun ustuvor chora-tadbirlar va loyihalarni belgilab olish imkonini beradi. Ushbu masalalarni mamlakatlarimiz transport vazirlarining navbatdagi kengaytirilgan yig'ilishida yirik transport-logistika kompaniyalari, operatorlar va ekspeditorlar, tahlilchi va ushbu soha mutaxassislarini keng jalb etgan holda batafsil ko'rib chiqishni taklif etamiz. Biz **Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida O'zbekistonda Mintaqalararo o'zaro bog'liqlik markazini** tashkil etish bo'yicha tashabbusimizni ham hamkorlarimiz qo'llab-quvvatlashiga umid qilamiz. **To'rtinchi.** "Yashil" kun tartibiga oid masalalarga alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Bugungi kunda barcha mamlakatlarimiz bu borada ko'p ishlarni olib bormoqda. Biroq SHHT maydonida iqlim o'zgarishiga moslashish,

**ILMIY VA TA'LIM DASTURLARINI
KENGAYTIRISH, TASHKILOTGA
A'ZO MAMLAKATLAR
TILLARIGA XALQLARIMIZNING
ADABIY MEROSINI TARJIMA
QILISH VA NASHR ETISH
BO'YICHA TIZIMLI ISHLARNI
OLIB BORISH MUHIMDIR.
SHUNINGDEK, "SHHT – ILG'OR
G'OYALAR VA KELAJAK
TASHABBUSLARI MAKONI"
MAVZUSIDA YOSHLAR
O'RTASIDA MULOQOTNI
KENGAYTIRISH BO'YICHA
TADBIRLAR DASTURINI
TAYYORLASH TASHABBUSINI
ILGARI SURMOQDAMIZ.**

yangi sharoitlarda ustuvor vazifalarni belgilab olish, ko'p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha umumiy yondashuvlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. **Ikkinchi.** SHHT mintaqasi – bu ulkan iqtisodiy imkoniyatlar maydoni, tashkilotimizga a'zo barcha mamlakatlar uzoq

tarmoqlarini qamrab oluvchi **Yangi iqtisodiy muloqot dasturini** qabul qilish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berishni taklif qilaman. Bunday loyihalarni ilgari surish maqsadida O'zbekistonda SHHTga a'zo davlatlar **mintaqalarining innovatsion sherikligi haftaligini**, yuqori

SHAVKAT MIRZIYOVNING SHANXAY
RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

dekarbonizatsiya va "toza" texnologiyalarni joriy etish, "aqlii" qishloq xo'jaligi va suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni rivojlantirish masalalari bo'yicha yanada yaqin muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlik zarur. Biz tashkilotimiz makonida keyingi yil – Ekologiya yili deb e'lon qilinishini qo'llab-quvvatlaymiz.

"Yashil belbog'" dasturi doirasida Mintaqaviy ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash va "yashil" texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini tayyorlashni taklif qilamiz. Ushbu ishni O'zbekistonda tashkil etilayotgan Markaziy Osiyo atrof-muhitni o'rganish va iqlim o'zgarishi universiteti negizida tashkil etish mumkin.

Beshinchi. Oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar ortib borayotgani munosabati bilan Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti bilan birgalikda joriy yilning sentyabr oyida O'zbekistonda mazkur masala bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazishni rejalashtirmoqdamiz. Ushbu tadbirning alohida sessiyasi mazkur masalani global darajada hal etishga amaliy hissa qo'shish uchun umumiy tamoyil va yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida SHHT davlatlari hamkorligiga bag'ishlanadi. Ushbu konferensiyada sizning mamlakatlaringiz delegatsiyalarini faol ishtirok etishga taklif qilamiz.

Oltinchi. Turizm sohasidagi hamkorlik asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda sifatli va maqbul narxlardagi umumimintaqaviy sayyohlik mahsulotlari yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. SHHT mintaqasida Turizmni rivojlantirish yilida turizm ma'muriyatlari, yetakchi operator va aviakompaniyalar o'rtasidagi aloqalarning faollashuvini qo'llab-quvvatlaymiz.

Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" xalqaro universitetida shu yilning oktyabr oyida bo'lib o'tadigan Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi doirasida SHHT



Biz SHHTning yaxshi qo'shnichilik, ishonch va transchegaraviy sheriklik kodeksini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surmoqdamiz. Ushbu hujjatning qabul qilinishi yangi sharoitlarda ustuvor vazifalarni belgilab olish, ko'p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha umumiy yondashuvlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha qo'shma ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazishni taklif etamiz.

Yettinchi. SHHT mamlakatlari boy madaniy-gumanitar salohiyatga ega. Ushbu yo'nalishda muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradi, deb hisoblaymiz.

Shu munosabat bilan biz faol madaniy almashinuvlar bo'yicha yillik taqvimlarni shakllantirish amaliyotini joriy etishni taklif qilamiz. Xalqlarimizning betakror tarixiy merosi bo'yicha qo'shma ko'rgazmalar, bevosita hamda elektron platformalar asosidagi konsertlar, teatrlar gastrollari, forumlar, kinofestivallar va taqdimotlar ushbu taqvimdan o'rin oladi.

Ilmiy va ta'lim dasturlarini kengaytirish, tashkilotga a'zo mamlakatlar tillariga xalqlarimizning adabiy merosini tarjima qilish va nashr etish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish muhimdir. Shuningdek, "SHHT – ilg'or g'oyalar va kelajak tashabbuslari makoni" mavzusida yoshlar o'rtasida muloqotni kengaytirish bo'yicha tadbirlar dasturini tayyorlash tashabbusini ilgari

surmoqdamiz. **Sakkizinchi.** Mamlakatlarning barqaror rivojlanishi mintaqada yagona va bo'linmas xavfsizlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq.

Hamkasblarim tomonidan SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyatini faollashtirish bo'yicha tashabbuslar qo'llab-quvvatlanayotganini mamnuniyat bilan qayd etmoqchiman.

Biz Mintaqaviy aksilterror tuzilma kengashining sayyor yig'ilishlarini o'tkazish amaliyotini davom ettirishni qo'llab-quvvatlaymiz. Bu ushbu tuzilmaning zamonaviy tahdidlarga tezkor javob berish bo'yicha imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ko'p tomonlama muhim hujjatlar – Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi shartnoma hamda SHHT makonida ekstremistik mafkuraga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma dasturni tayyorlash va qabul qilishni olib borish zarur, deb hisoblaymiz. Ushbu hujjatlarning hayotga tatbiq etilishi radikalashuv borasidagi xatarlarga munosib javob bo'lishi, buzg'unchi kuchlarning o'z mafkurasini, birinchi navbatda, yoshlar

o'rtasida tarqatishga bo'lgan urinishlarini zararsizlantirishi lozim.

Hurmatli hamkasblar!

Kun tartibimizda turgan yana bir muhim masala – bu Afg'onistonda saqlanib qolayotgan murakkab vaziyatdir.

Afsuski, bu mamlakatning muammosi va afg'on xalqining fojiasi xalqaro kun tartibida ikkinchi o'ringa surilib qoldi. Keyingi paytlarda xalqaro miqyosda amalga oshirilgan barcha harakatlar kutilgan natijani bermadi. Afg'oniston aholisining tobora og'irlashib borayotgan ijtimoiy ahvoli ham shundan dalolat beradi. Buning ustiga ushbu mamlakatga ko'rsatilayotgan gumanitar yordam hajmi sezilarli darajada kamaydi. Faqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Afg'oniston hukumati bilan konstruktiv muloqot o'rnatish orqaligina bu muammoga yechim topish mumkin, deb hisoblaymiz. Bu ko'p jihatdan Afg'onistonning bevosita qo'shnilari va uzoq muddatli siyosiy yechim topilishidan eng ko'p manfaatdor bo'lgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlarining siyosiy irodasiga bog'liq. Shu munosabat bilan "SHHT –

Afg'oniston" muloqot guruhi shaklidagi birgalikdagi ishlarni va maslahatlashuvlarni qayta tiklash maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Aziz do'stlar!


So'zimizning yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni qabul qilib olgani munosabati bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Kemelevich Toqayevga bildirilgan tabrik va tilaklarga qo'shilaman. Siz e'lon qilgan keng ko'lami dasturni amalga oshirishda yaqin hamkorlik qilishga tayyormiz. Shuningdek, O'zbekistonda bo'lib o'tadigan prezidentlik saylovi munosabati bilan aytgan iliq so'zlaringiz va muvaffaqiyatlar tilaganingiz uchun sizlardan chin dildan minnatdorman. Ishonchim komilki, uchrashuvimiz natijalari, bugun ilgari surilgan tashabbuslar, qabul qilinadigan muhim qarorlar SHHT makonida serqirra sheriklikni yanada kengaytirishga, xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik va do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

O'ZA

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD –

– IVUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUTI



MAQSADIMIZ - BIR!

– QORAQALPOG'ISTONDA BIZ KELGUSI YETTI YILDA QO'SHIMCHA

100 MING YANGI O'QUVCHI O'RNI YARATAMIZ. BUNDA, 30 TA YANGI MAKTAB VA 150 TA

MAKTAB UCHUN QO'SHIMCHA BINO QURILADI, **350 TASI**
TA'MIRLANADI. IXTISOSLASHGAN MAKTABLAR SONI ESA

IKKI KARRA OSHIRILIB, **32 TAGA** YETKAZILADI. NATIJADA,
QORAQALPOG'ISTONDAGI MAKTABLARDA 30-35 NAFARDAN
ORTIQ BOLA O'QIYDIGAN SINFLAR UMUMAN BO'LMAYDI.

BIZ **1-4 – SINFI** O'QUVCHILARIGA BEPUL OVQAT BERISHNI
QORAQALPOG'ISTONDAN BOSHLAGAN EDIK. ENDI OLIS VA CHEKKA
OVULLARDAGI BOLAJONLARIMIZNING MAKTABGA BORISHI UCHUN
AVTOBUS QATNOVINI HAM BIRINCHI BO'LIB SHU ZAMINDAN
BOSHLAYMIZ.

Shavkat Mirziyoyev

Qoraqalpog'istonlik
saylovchilar bilan
bo'lgan uchrashuvdagi
nutqidan

milliy

4

Chorshanba 5-iyul, 2023-yil №20 (1208)

SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2023

– XORAZM VILOYATIDA 2030-YILGA QADAR MAKTABGACHA TA'LIMGA
BO'LGAN EHTIYOJ TO'LIQ QOPLANADI VA QAMROV HOZIRGI

79 FOIZDAN 100 FOIZGA YETKAZILADI. SHU MAQSADDA, QARIYB

**2 TRILLION
SO'M MABLAG'
HISOBIGA
500 GA
YAQIN YANGI
BOG'CHALAR
TASHKIL ETILADI.**

KELGUSI YETTI YILDA ZAMONAVIY MAKTABLAR BARPO ETISH,
MAVJUDLARINING QUVVATINI OSHIRISH HISOBIGA QO'SHIMCHA

90 MING O'QUVCHI O'RNI YARATILADI. NATIJADA VILOYATDA
O'QUVCHISI **30 NAFARDAN** KO'P BO'LGAN SINFLAR QOLMAYDI.

Shavkat Mirziyoyev

Xorazmlik saylovchilar
bilan bo'lgan
uchrashuvdagi
nutqidan



JAZOLASH BILAN

JINOYATNING OLDINI OLIB BO'LMAYDI



«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida «Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlik yanada liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi qizg'in muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar manfaatini himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan kafolatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilyapti. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasidagi vaziyat, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikni yanada liberallashtirish, 18 yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsni sudlanmagan deb hisoblashning alohida tartibini belgilash zaruratini vujudga keltirmoqda. Vaholanki, xalqaro umume'tirof etilgan normalarda voyaga yetmaganlarning jinoiy javobgarligini boshqa shaxslarga nisbatan yengilroq shaklda belgilash ko'rsatilgan.

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar tomonidan 2021-2022 – yillarda 4 666 ta jinoyat sodir etilgan. Unda ishtirok etganlarning 3 944 nafari umumta'lim maktablari, 728 nafari litsey va kollej o'quvchilari, 517 nafari ishlaydigan, 518 nafari esa ta'limga jalb etilmagan yoki ishsiz yoshlar tashkil qilgan. Shu o'rinda, 2021-2022 – yillarda 2 924 nafar voyaga yetmaganlarga sudning ayblov hukmi chiqarilganini,

ulardan 693 nafariga jarima va majburiy jamoat, 75 nafariga axloq tuzatish ishlari, 1 573 nafariga ozodlikni cheklash, 358 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlanganini aytish joiz. 225 nafar yosh esa shartli ravishda hukm qilingan.

Bundan ko'rinadiki, sudlangan voyaga yetmaganlarning 1 931 nafari (66 foizi) jazoni o'tab bo'lganidan keyin ham 10 yilgacha ish va o'qish joylarida «sudlangan» degan tamga ostida yurishi mumkin. Amaldagi qonunchilikda esa jazoni o'tab bo'lganidan so'ng sudlanganlik tugallanishi mumkinligi belgilangan. Jumladan, Jinoyat kodeksining 78-moddasiga ko'ra, shartli hukm qilinganda sinov muddati tugagan kundan boshlab jarima,

majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish jazolari o'tab bo'lganidan keyin shaxsning sudlanganligi tugallanadi.

Fraksiya a'zosi Davron Aripovning ta'kidlashicha, ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 18 yoshga to'lguniga qadar sodir etgan o'ta og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lgan shaxsni sudlanmagan deb hisoblanishini va voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklashning hamda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam muddatini olti oydan bir oyga qisqartirilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Deputatning fikricha, fraksiya a'zolari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu qonun loyihasining 77-moddasi bo'yicha ko'plab takliflar kelib tushdi. Xususan, agar voyaga yetmaganlar 14 yoshdan 18 yoshgacha bir necha bor jinoyat sodir etsa ham «sudlanmagan» hisoblanadimi, degan ma'noda.

Shundan kelib chiqib, ushbu moddaning oltinchi qismida o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'lgan shaxs sudlanmagan hisoblanadi, bundan o'ta og'ir jinoyatlar yoki sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'lganidan keyin o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar qasddan yangi jinoyat sodir etish holatlari mustasno deb belgilandi. Ya'ni, voyaga yetmaganlar qasddan yana jinoyat sodir etmasagina «sudlanmagan» deb hisoblanadi. Aks holda «sudlangan» tamgasi olib tashlanmaydi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov ham qonun loyihasiga munosabat bildirar ekan, yondashuvda xato borligini, jinoyatchi osmondan tushmasligini va uning psixologik shakllanish jarayoni borligidan ko'z yumib bo'lmashini ta'kidladi. Ya'ni, shaxsda jinoyatchilik xarakteristikalariga asta-sekin ko'rina boshlaydi. Hozir ushbu qonun loyihasi bilan bu jarayonning barchasiga ko'z yumib, jinoyatchining shakllanishiga muhit yaratib bermayapmizmi? Undan ko'ra, ilgariidek ushbu davrda jinoyat, agressiya, huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirishimiz to'g'ri emasmi, degan fikrni ilgari surdi.

– Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi uchrashuvlarida ham voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik, oiladagi zo'ravonliklarning oldini olish, oilaviy munosabatlarning shakllanish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bunda mahallaning rolini oshirish lozimligi ta'kidlandi va bu partiyamiz g'oyalarga ham hamohangdir, – dedi Alisher Qodirov.

Fraksiya a'zosi Jahongir Shirinov ham ushbu fikrlarni qo'llab-quvvatlab, jazolash bilan jinoyatning oldini olib bo'lmashini, eng to'g'ri yo'l tarbiyada ekanini qayd etdi va qonun tashabbuskorlari fraksiya a'zolarining e'tirozi bilan aynan voyaga yetmaganlarning jinoyatchi bo'lib shakllanishining oldini olish masalasida 77-moddaga tegishli o'zgartirish kiritilganini ma'lum qildi.

Deputatlar qizg'in muhokamalardan so'ng ushbu o'zgarishlar voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligini yanada liberallashtirib, shaxsning voyaga yetgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'tab bo'lganidan boshlab «sudlangan» degan tamga'dan xalos bo'lishiga va kelgusi hayotini yangidan boshlashiga imkon berishidan kelib chiqib, qonun loyihasini ikkinchi o'qishda ma'qulladilar.

Hududlarda

ENDI BALIQ TUTISHNI O'RGATYAPMIZ!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan videoselektor yig'ilishida «Xalqimizga baliq emas, qarmoq berishimiz kerak» degan g'oyani ilgari surgan edilar.



Haqiqatan ham, keyingi yillarda ayni shu g'oya asosida yurtimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ya'ni, muhtojlarga doimo ijtimoiy yordam berish emas, avvalo, ularga biron hunar o'rgatib, keyin sharoit yaratish choralari ko'rilayapti. Sodaroq aytganda, ehtiyojmand aholi shu yo'l bilan boqimandalikdan xolos qilinmoqda.

Yaqinda partiyaning Surxondaryo viloyati Kengashi raisi, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi deputati Saydulla Abduraimov sa'y-harakati bilan sariosiyolik Baxtiniso Xumoydinovaga tikuv mashinasi sovg'a qilindi.

Ma'lum bo'lishicha, yolg'iz farzandini voyaga yetkazayotgan Baxtiniso Xumoydinova shu paytgacha mahallaning yordami bilan kun kechirayotgan edi. Qo'ldan berganga qush to'yimas deganlaridek, bunday

yordam bilan oilaning moddiy ahvolini yaxshilashning ilojisi yo'q edi. Xo'sh, qora qozon doimo qaynab turishi, farzandi va o'z ehtiyojlarini to'la-to'kis ta'minlash uchun nima qilish kerak?

– Baxtinisoning murojaatidan so'ng uning oilaviy sharoitini o'rgandik. Tikuvchilikka qiziqishi borligini e'tiborga olib, uni partiyaamizning «Xizmat – beminna» loyihasi doirasida bepul tikuv kursida o'qitdik. So'ngra tikuv mashinasi sovg'a qildik, – deydi S.Abduraimov.

B.Xumoydinovaning aytishicha, u ayni paytda buyurtma asosida bolalar va ayollar kiyimlarini tikmoqda. Topish-tutishi ham yomon emas. Eng asosiysi, endi o'zgalarning yordamiga muhtoj emas.

Shahlo TANGIROVA,
Surxondaryo viloyati Kengashi
bosh mutaxassisi

Ravshan MAHMODOV,
«Milliy tiklanish»
muxbiri

QAT'IVATLI SIYOSAT

YANGI O'ZBEKISTON TANLAGAN YO'LNI KO'RSATIB TURIBDI



Yaqin-yaqingacha O'zbekiston jahonga, hatto yonginasidagi qo'shnilariga ham yopiq mamlakat edi. Shuning uchun ham xalqimiz aynan ana shu davrda juda ko'p imkoniyatlarni boy berdi. Uzoq yillar davom etgan izolyatsiyaning oqibatlarini esa iqtisodiyotimiz hali ko'p yillar his qilsa kerak.

Lekin bundan ham achchiqroq haqiqat shundaki, davlatimiz nafaqat tashqi dunyoga, balki o'z xalqiga ham yopiq edi.

Ha, chindan ham hokimiyatning birdan-bir manbai bo'lgan xalq paradoksni qarangki, o'z davlatining siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi maqsad hamda vazifalaridan, hatto mamlakatdagi real vaziyatdan ham bexabar edi.

Yaqin o'tmishimizda qanday kunlarni boshdan kechirganimizni yodda tutmoqlik, fikrimcha, bugun nimalarga erishganimizni to'laqonli tasavvur qilish imkonini berish barobarida har birimizda shu kunlarga nisbatan shukronalik hissini ham mustahkamlaydi. Biroq bundan ham muhimi, to'g'ri saboqlar, tegishli xulosalar asosida yanada yuksak marralarni ko'zlashimizga asos bo'lib xizmat qiladi.

Chindan ham, davlat boshqaruvida ochiqlik ta'minlangani bugungi kundagi eng fundamental yutuqlarimizdan bo'ldi. Ya'ni, barcha sohalaridagi o'zgarish va yangilanishlarga aynan shaffoflik tufayli erishyapmiz, desam xato bo'lmasa kerak. Albatta, qat'iyatlilik, siyosiy iroda

bo'lmaganida ochiqlik haqida hatto so'z yuritishning ham imkonini bo'lmas edi. Lekin o'tgan qisqa davr ichida bo'lsada, milliy tajribamiz ko'rsatayotganidek, xoh mamlakat taqdirini hal etuvchi hayotiy masalalar bo'lsin, xoh kundalik muammolar bo'lsin odamlar bilan bamaslahat ish tutilmasa, aholi olib borilayotgan ishlardan xabardor qilinmasa, islohotlarga intilishning o'zi yetarli emasligi hammamizga ayon bo'ldi.

Shu bilan birga, ikkilanmasdan e'tirof etish joizki, ana shu ochiqlik ham, albatta, siyosiy iroda tufayli vujudga keldi.

Ta'kidlash kerak, ochiqlik siyosati ham ulkan bir ne'mat hamda huquqdir. Uni boshqa huquqlar kabi, suiste'mol qilish yomon oqibatlariga olib kelishi muqarrar. Undan qabih maqsadlarda foydalanishga doir misollarni esa ham davlat idoralari, ham fuqarolar faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Binobarin, bu huquq o'zida undan foydalanuvchilar zimmasiga muayyan majburiyat yuklaydi. Boshqacha aytganda, bunday huquqdan bahra olish boshqa birovlarining

huquqi va erkinliklarini poymol qilish evaziga yuz bermasligi lozim. Faylasuflar ta'biri bilan aytganda, mening huquqlarim boshqalarning huquqlari boshlangan joyda chegaralanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquq va erkinliklardan naf olmoq ulkan mas'uliyat talab etadi. Ulardan cheklanmagan tarzda foydalanilgan holatlarda (davlat organlari tomonidan bo'ladimi yoxud fuqarolar tomonidanmi) jamiyat qanday mudhish oqibatlariga yuz tutishini insoniyat tarixi har qadamda namoyish etib kelmoqda. Boshqacha aytganda, demokratiya bu — cheklanmagan huquqlar degani emas, albatta.

Aytmoqchi bo'lganim, mana, bir necha yildirki, O'zbekistonimiz tarixida ilk marta chinakam ochiqlik siyosati jamiyat turmush tarziga aylanar ekan, bu ne'matni asrab-avaylab, ezgu maqsadlar sari yo'naltirish kerakligini hayotning o'zi talab etmoqda. Oxirgi yillarda mazkur yo'nalishda shakllantirilgan qonunchiligimiz ham ushbu huquqdan foydalanish me'yorlarini belgilab berdi.

Demakki, ham qonunchilik nuqtayi nazaridan, ham ijtimoiy taraqqiyot va tajriba nuqtayi nazaridan jamiyatimiz ochiqlik sharoitida yashab faoliyat yuritishga tayyor, desak adashmagan bo'lamiz. Ya'ni, ochiqlikning o'tish davridan yetuklik davriga kirish vaqti keldi, nazarimda. Shu ochiqlik maydoni ishtirokchilari (davlat idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV, blogerlar, jismoniy shaxslar) bu huquqni o'z manfaatlarida ishlatishdan tiyilib, undan, o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishda, jamiyat manfaatlarini olg'a surishda foydalanishlari o'sha yetuklik davriga kirganimiz alomati

bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda Milliy parlamentimiz ham boshqa davlat idoralari va tashkilotlari kabi o'z faoliyatini shaffoflik tamoyillariga muvofiq amalga oshirmoqda. Quyi palata yig'ilishlari, masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda to'g'ridan-to'g'ri efigra uzatilyapti, saylovchilar o'zlari saylagan deputatlar faoliyatidan har kuni boxabar bo'lib turibdi, xalq vakillari matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda jamiyatimiz hayotiga daxldor bo'lgan dolzarb masalalarga o'z munosabatlarini bildirmoqdalar. Ya'ni, Qonunchilik palatasi o'z faoliyatida jamiyatimiz doimiy tarzda xabardor qilyapti.

Xususan, rasmiy veb-saytimizdan tashqari YouTube, Facebook, Instagram, Twitter, Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek, rus, ingliz tillarida xalq vakillarining kundalik faoliyati, ularning voqea-hodisalarga munosabatiyu, hisobotlari berib borilmoqda. Aholi murojaatlari ham o'z vaqtida ko'rib chiqilib, yechimlar topilyapti, ko'tarilayotgan savollarga esa malakali javoblar qaytarilyapti.

Shu o'rinda ahyon-ahyonda bo'lsada yangrab turgan, ochiqlik biz uchun emas ekan, so'z erkinligini cheklash va jilovlash zarur, bu boshboshdoqlikka olib keladi, qabilidagi chaqiriqlarga uchib, tanlagan yo'limizdan qaytmaganimiz tarixiy yutug'imiz ekanini ta'kidlash joiz. Va, bu qarorimiz o'zini oqladi: "O'tga qaytish yo'q" ma'nosidagi qat'iyatli siyosat Yangi O'zbekistonimiz tanlagan yo'lni ko'rsatib turibdi.

Odiqjon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi Spikeri
o'rinbosari, Parlament
axborot markazi rahbari



RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI SHUNI KO'RSATADIKI,


HUQUQ VA ERKINLIKlardan NAF OLMOQ ULKAN MAS'ULIYAT

TALAB ETADI. ULARDAN CHEKLANMAGAN TARZDA FOYDALANILGAN HOLATLARDA (DAVLAT ORGANLARI TOMONIDAN BO'LADIMI YOXUD FUQAROLAR TOMONIDANMI) JAMIYAT QANDAY MUDHISH OQIBATLARGA YUZ TUTISHINI INSONIYAT TARIXI HAR QADAMDA NAMOYISH ETIB KELMOQDA.



- IYUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -



MAQSADIMIZ - BIR!

- BIR RAQAMGA E'TIBOR QILING, ASAKA TUMANIDAGI SANOAT
ISHLAB CHIQRISH HAJMLARI RESPUBLIKANING **9 TA VILOYATI**
SANOATIDAN YUQORI. BIZ AVTOMOBILSOZLIK SANOATINI YANADA
RIVOJLANTIRISH UCHUN QO'SHIMCHA

1 MILLIARD DOLLAR INVESTITSIYA KIRITAMIZ.

BU ORQALI KELGUSI IKKI YILDA AVTOMOBIL ISHLAB CHIQRISHNI HOZIRGI
300 MING DONADAN 500 MING DONAGA OLIB CHIQAMIZ.

2030-YILGA QADAR ESA YILIGA 1 MILLION DONA

AVTOMOBIL ISHLAB CHIQRISHGA ERISHAMIZ. SHUNINGDEK,
ASAKADA **13 TA KORKONA** ISHTIROKIDA YIRIK MASHINASOZLIK
KLASTERI TASHKIL ETILMOQDA.

Shavkat Mirziyoyev

Andijonlik saylovchilar
bilan bo'lgan
uchrashuvdagi
nutqidan

SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2023

– FARG‘ONA VILOYATIDA MAKTABGACHA TA‘LIMGA BO‘LGAN EHTIYOJ **100 FOIZGA** QOPLANADI. BUNING UCHUN

2 MINGTA YANGI DAVLAT VA XUSUSIY BOG‘CHALAR TASHKIL ETILADI. 2030-YILGA QADAR,

ZAMONAVIY MAKTABLAR BARPO ETISH, MAVJUDLARINING QUUVATINI OSHIRISH, XUSUSIY SEKTORNI QO‘LLAB-
QUVVATLASH HISOBIGA QO‘SHIMCHA

125 MING O‘QUVCHI O‘RNI YARATILADI.

NATIJAIDA, MAVJUD QUUVATLARGA NISBATAN **2 BARAVAR** KO‘P O‘QUVCHIGA EGA BO‘LGAN **175 TA MAKTAB**
YUKLAMASI KAMAYTIRILADI. SHU BILAN BIRGA, VILOYATDAGI 350 TA MAKTAB TO‘LIQ TA‘MIRLANADI, BARCHA
MAKTABLAR ZAMONAVIY KOMPYUTER SINFLARI BILAN JIHOZLANADI.

Shavkat Mirziyoyev

Farg‘onalik saylovchilar
bilan bo‘lgan
uchrashuvdagi
nutqidan



TASHVIQOT

SAYLOV

JARAYONINING MUHIM BOSQICHINI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida saylovoldi tashviqoti muhim bosqichlardan biri bo'lib, bu jarayonda siyosiy partiyalarning faollari, nomzodlar, nomzodlarning ishonchli vakillari saylovchilarning eng ko'p ishonchi hamda qo'llab-quvvatlashiga erishish uchun targ'ibot tadbirlarini amalga oshiradilar.

Bunday tadbirlar siyosiy partiyalar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish, saylovchilarning, qolaversa, aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham bu jarayonning mukammal huquqiy asosi yaratilib, u Saylov kodeksining «Saylovoldi tashviqoti» deb nomlangan to'qqizinchi bobida mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Saylov kodeksining 44-moddasida saylovoldi tashviqotining tushunchasi, tartibi va muddatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, saylovoldi tashviqoti bu — saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarning nomzod yoki siyosiy partiyani yoqlab

Respublikasi Prezidenti saylovi 2023-yil 9-iyul kuniga belgilangan. Yuqorida qayd etilgan qoidaga ko'ra, saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida saylovoldi tashviqotiga yo'l qo'yilmasligini inobatga olganda, 8-9 – iyul kunlari tashviqot tadbirlarini amalga oshirish mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Qonunchilikda belgilangan ushbu talablarga to'la amal qilgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar, qolaversa, ushbu nomzodlarning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning ishonchli vakillari ro'yxatga olindi.

Shu o'rinda muhim bir masalaga e'tibor qaratish zarur, saylovoldi tashviqotini saylovchilarga bepul yoki imtiyozli shartlarda tovarlar berish, axborot xizmatlaridan tashqari boshqa har qanday xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, pul mablag'lari to'lash bilan qo'shib olib borish yoki bo'lmasa noto'g'ri axborotni, shu jumladan, nomzodlarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi:

- saylovoldi tashviqoti davlat suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilmasligi;
- aholining sog'lig'i hamda ijtimoiy axloqiga tahdid solmasligi;
- urushni, milliy nafratni, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilmasligi;
- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik ishlatib o'zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari hamda erkinliklarini cheklovchi harakatlarga da'vat qilmasligi kerak.

Qonunchilikda bir qator mansabdor shaxslar va ayrim kasb egalarining saylovoldi tashviqotini olib borishlariga taqiq belgilangan. Xususan, davlat hokimiyati va

boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, boshqa harbiylashtirilgan bo'linmalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining, sudyalarning, saylov komissiyalari a'zolarining, diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining tashviqot olib borishlari taqiqlangan.

Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga o'z mansab va xizmat mavqeidan saylovoldi tashviqoti vaqtida har qanday siyosiy partiyaning yoki nomzodning foydasiga yoxud unga qarshi foydalanishi taqiqlangan.

Qonunga muvofiq, saylovoldi tashviqoti siyosiy partiyaning dasturi yoki saylovoldi platformasi to'g'risidagi axborotni partiya tomonidan ko'rsatilgan nomzodni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodning dasturi, saylovoldi platformasi yoki nomzodning shaxsi va faoliyatiga oid axborotni nomzodni yoqlab ovoz berishga da'vat etgan holda tarqatish yo'li bilan amalga oshirish tarzida olib boriladi. Shuningdek, omma oldida, fuqarolarning yig'ilishlarida ochiq bahs-munozaralar, chiqishlar qilish, matbuot konferensiyalari o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida intervyular uyushtirish, roliklarni joylashtirish shaklida olib borilishi mumkin.

Saylov kodeksining 45-moddasiga asosan saylovoldi tashviqoti — ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'i orqali bosma, ko'rgazmali, audiovizual va boshqa tashviqot materiallarini, xususan, plakatlar, varaqalar

kabi boshqa materiallarni chiqarish hamda tarqatish, yoxud saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali hamda saylov qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa shakl va usullar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Saylov qonunchiligida saylovoldi tashviqotini olib borishning bir qator talablari borki, manfaatdor taraflar ushbu jarayonda qonun bilan o'rnatilgan talablarni yaxshi bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari kerak. Xususan, tashviqot olib borilayotganda siyosiy partiyalar hamda nomzodlarga davlat ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda hajmiga ko'ra, bir xil bo'lgan e'fir vaqti va nashr maydonini bepul berish yo'li bilan teng sharoitlar ta'minlanadi. Bunda, saylovoldi tashviqoti maqsadida ommaviy axborot vositalaridan bepul foydalanish tartibi, hajmi va vaqti siyosiy partiyalarning fikrini inobatga olgan holda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Yuqoridagilar bilan birga, davlat ommaviy axborot vositalarida haq evaziga ham qo'shimcha e'fir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi, nodavlat ommaviy axborot vositalarida qonunchilikka muvofiq e'fir vaqti yoki nashr maydoni ajratilishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari tomonidan e'fir vaqti, nashr maydoni uchun belgilanadigan haq to'lash shartlari hamda boshqa talablar barcha uchun teng va bir xil bo'lishi lozim.

Ushbu qonun talablariga asosan, Markaziy saylov komissiyasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarning saylovoldi tashviqoti to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar uchun saylovoldi tashviqoti davrida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining markaziy va mahalliy teleradiokanallarida bepul

« Qonunchilikda bir qator mansabdor shaxslar va ayrim kasb egalarining saylovoldi tashviqotini olib borishlariga taqiq belgilangan.

ovoz berishlariga undashga qaratilgan faoliyatdir.

Saylovoldi tashviqoti nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan boshlanadi. Saylov kuni va ovoz berishga bir kun qolganida tashviqotga yo'l qo'yilmaydi. Markaziy saylov komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olishning oxirgi muddati 2023-yil 6-iyun etib belgilangan. Demak, saylovoldi tashviqot tadbirlari 7-iyun kundan boshlanishi lozim. Shuningdek, muddatidan ilgari O'zbekiston

ajratiladigan efir vaqti va hajmi;
- «Yangi O'zbekiston»,
«Pravda Vostoka», «Xalq so'zi»,
«Narodnoye slovo», «Ovozi
tojik», «Nurli jol» kabi oltita
markaziy va Qoraqalpog'iston
Respublikasi, viloyatlar va
Toshkent shahrining yigirma
to'rtta mahalliy gazetalarda
bepul ajratiladigan nashr
maydoni tasdiqlandi;

- Saylov kodeksining
talablarini inobatga olgan holda
saylovoldi tashviqoti davrida
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentligiga nomzodlarning
ommaviy axborot vositalarida

tashviqot uchun teng sharoitlar
yaratiladi. Saylovchilar bilan
uchrashuvlar O'zbekiston
Respublikasi Prezidentligiga
nomzodlar, siyosiy partiyalar
tomonidan mustaqil ravishda
o'tkaziladi. Saylovchilar bilan
uchrashuvlarni o'tkazish
joyi va vaqti haqida okrug
yoki uchastka komissiyasiga
ma'lum qilinadi.

Saylovchilar bilan
uchrashuvlar kabi ommaviy
tadbirlar ularning o'tkazilish
joyi va vaqti haqida tegishli
tuman (shahar) hokimliklari
ushbu tadbirlarni o'tkazishdan



Nomzod yoki uning ishonchli vakili boshqa nomzod
yoki uning ishonchli vakili bilan birgalikda saylovchilar
bilan uchrashuvlar o'tkazishga yoxud boshqa
nomzod tomonidan tashkil etilgan saylovchilar bilan
uchrashuvlarda ishtirok etishga haqli.

chiqishlari ketma-ketligining
tartibi belgilandi.

Shuningdek, ushbu
qarorda ommaviy axborot
vositalari saylovoldi tashviqoti
davrida – bepul ajratiladigan
efir vaqti va nashr maydoni
doirasida O'zbekiston
Respublikasi Prezidentligiga
nomzodlarning saylovoldi
tashviqoti davrida chiqishlari
uchun zarur shart-sharoitlar
yaratishlari, yangiliklar
dasturlari va boshqa axborot
materiallarida prezidentlikka
nomzodlarning saylovoldi
tadbirlarini yoritishda tenglik
prinzipiga rioya qilishlari,
bepul ajratilgan efir vaqti va
nashr maydoni doirasida
efirga uzatilayotgan hamda
chop etilayotgan saylovoldi
tashviqoti materiallarini efirga
uzatish yoki chop etishda,
ular saylovoldi tashviqoti
materiallari ekanligini qayd
etib borishlari lozimligi belgilab
qo'yildi.

Saylov kodeksining
47-moddasiga asosan
nomzodlar va siyosiy partiyalarga
bosma, ko'rgazmali, audiovizual
materiallarni, fonogrammalarni,
bosma mahsulotning elektron
shakllarini va boshqa tashviqot
materiallarini moneliksiz
chiqarish hamda tarqatish
uchun teng sharoitlar yaratiladi.
Yagona talab, tashviqot
materiallari O'zbekiston
Respublikasi hududida
tayyorlanishi, bosma,
ko'rgazmali, audiovizual va
boshqa tashviqot materiallarida
tashviqot materiallariga
buyurtma bergan yoki
tashviqot materiallarini
tayyorlagan yuridik shaxsning
nomi yoxud jismoniy shaxsning
familiyasi, ismi va otasining
ismi, joylashgan manzili va u
haqdagi boshqa ma'lumotlar,
shuningdek, tashviqot
materiallarining adadi,
chiqarilgan sanasi to'g'risidagi
axborot ko'rsatilishi lozim.

Saylov kodeksining
48-moddasiga binoan,
nomzodlarga va siyosiy
partiyalarga saylovchilar bilan
uchrashuvlar o'tkazish orqali

kamida uch kun oldin yozma
ravishda xabardor qilingan
holda o'tkaziladi. Bunda ushbu
ommaviy tadbirlarni o'tkazish
uchun ruxsatnoma olish talab
qilinmaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi
organlari, mahalliy davlat
hokimiyati organlari, jamoat
birlashmalari, shuningdek,
fuqarolarning o'zini o'zi
boshqarish organlari
uchrashuvlar o'tkazish uchun
jihozlangan xonalarni bepul
ajratishi, zarur ma'lumot
va axborot materiallarini
olishda siyosiy partiyalarga,
nomzodlarga yoki ularning
ishonchli vakillariga yordam
ko'rsatishi shart.

Nomzod yoki uning ishonchli
vakili boshqa nomzod yoki
uning ishonchli vakili bilan
birgalikda saylovchilar bilan
uchrashuvlar o'tkazishga yoxud
boshqa nomzod tomonidan
tashkil etilgan saylovchilar
bilan uchrashuvlarda ishtirok
etishga haqli.

Xulosa qilib aytganda,
yurtimizda saylovning
umume'tirof etilgan xalqaro
saylov standartlari talabiga
to'liq javob beradigan,
mustahkam huquqiy asoslari
yaratilgan bo'lib, bu ushbu
muhim siyosiy tadbir yuqori
saviyada, ochiq-oshkora
tashkil etilishi va o'tkazilishi,
saylov kampaniyasi davrida
barcha siyosiy partiyalar va
ular tomonidan ko'rsatilgan
nomzodlar uchun sog'lom
raqobat muhiti va teng
sharoitlar yaratilishiga
xizmat qiladi. Pirovardida
esa, Vatanimiz mustaqilligini
yanada mustahkamlash,
mamlakatimizni dunyodagi
rivojlangan, demokratik
huquqiy davlatlar qatoriga
ko'tarishda muhim qadam
bo'lishi shubhasiz.

Xudoyor MAMATOV,
Markaziy saylov
komissiyasining kotibi –
Kotibiyat rahbari. Yuridik
fanlari doktori, professor.
Birinchi darajali adliya
maslahatchisi



MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISHNING QONUNY ASOSLARI VA TARTIBI

Saylov kodeksining 57-moddasiga kiritilgan
qo'shimchaga ko'ra, endilikda O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti saylovda muddatidan
oldin ovoz berishni o'tkazish vaqti tegishli
okrug saylov komissiyasi tomonidan emas,
balki Markaziy saylov komissiyasi tomonidan
belgilanadi.

Muddatidan oldin ovoz berish tartibi
qanday. Kimlar bunday huquqqa ega?

Saylov uchastkasi hududida istiqomat
qilayotgan fuqarolar muddatidan oldin ovoz
bermoqchi ekanliklari haqida uchastka
saylov komissiyasiga ma'lum qiladilar.
Saylov komissiyasi a'zosi bu fuqaroni SJBAT
(Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi)
dan qidirib topadi va muddatidan oldin ovoz
bergan saylovchi sifatida belgilaydi hamda
bu haqda fuqarolarning doimiy yashaydigan
uchastka saylov komissiyasini xabardor qiladi.

Muddatidan oldin ovoz berish saylovga
o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga
uch kun qolganida tugallanadi. Va, bu haqda
ommaviy axborot vositalari orqali saylovchilar
va kuzatuvchilarga ma'lum qilinadi.

Muddatidan oldin ovoz berishda saylovchi
saylov kunida bo'la olmasligining sabablari
(ta'til, xizmat safari, xorijga chiqish va
hokazo) ko'rsatilgan ariza yozadi va tegishli
uchastka saylov komissiyasidan saylov
bulletenini oladi. "O'zbekiston Respublikasi

Muddatidan oldin ovoz berish bu
yuridik voqe'lik, yuridik fakt hisoblanib,
saylov kuni o'z yashash joyida
bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin
ovoz berish huquqiga ega. Muddatidan
oldin ovoz berishning huquqiy asoslari

Konstitutsiyamizning 128, Saylov
kodeksining esa 57-moddasi hamda
"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
saylovini o'tkazuvchi uchastka saylov
komissiyalarining faoliyati tartibi
to'g'risida"gi Nizomda belgilab
qo'yilgan.

Prezidenti saylovini o'tkazuvchi uchastka
saylov komissiyalarining faoliyati tartibi
to'g'risida"gi Nizomga asosan uchastka
saylov komissiyasi saylovchidan saylov
kunida bo'la olmasligining sabablarini
tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni talab
qilishi taqiqlanadi.

Saylovchi saylov bulletinini olganligi
haqida tegishli uchastka komissiyasining
kamida ikki nafar a'zosi hozirlikda
saylovchilar ro'yxatiga imzo qo'yadi.

Saylov bulletini maxsus jihozlangan
yashirin ovoz berish joyida saylovchi
tomonidan to'ldiriladi. Saylovchi qabul
qilgan qarorga dahl qilishga hech kimning
haqqi yo'q. U o'zi tomonidan to'ldirilgan
saylov bulletinini yopiq konvertga qoldiradi.
Qayd etish lozimki, konvert tegishli uchastka
saylov komissiyasining seyfida saqlanadi.
Konvertning yelimlangan joyiga ikki nafar
uchastka komissiyasi a'zosining imzolari
qo'yilib, komissiya muhri bilan tasdiqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, muddatidan oldin
ovoz berish fuqarolarning konstitutsiyaviy
huquqini amalda ta'minlashga qaratilgani
bilan muhim ahamiyatga ega.

Sherzod ZULFIQOROV,
Respublika Jamoat xavfsizligi
universiteti professori

Hududlarda

ANDIJON VILOYATIDA

11 622 NAFAR SAYLOVCHI

MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERDI

O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov
komissiyasining 2023-
yil 20-iyundagi 1299-
sonli qaroriga muvofiq
muddatidan oldin ovoz
berish joriy yilning 28-iyun
kuni boshlanib, 5-iyul kuni
yakunlanishi belgilangan.
Qonunchiligimizda
belgilangan ana shu
tartibdan kelib chiqib,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti saylovini
o'tkazuvchi 2- Andijon
okrugi tasarrufidagi saylov
uchastkalarida muddatidan
oldin ovoz berish jarayonlari
davom etmoqda.
– Saylov uchastkamizga
hududimizdagi
mahallalarda istiqomat
qiluvchi xizmat safariga,

sayohatga yoki davolanishga
ketayotganligi tufayli saylov
kuni ovoz berish imkoniga
ega bo'lmagan 50 nafardan
ortiq fuqaro muddatidan
oldin ovoz berish bo'yicha
murojaat qildi, – deydi
Andijon shahridagi 50-
uchastka saylov komissiyasi
raisi Nortojixon Eraliyeva.
– Ularga muddatidan
oldin ovoz berish haqida
tushunchalar berildi hamda
qonun doirasida ovoz
berishlari uchun zarur
sharoitlar yaratildi.
– Davolanish uchun qo'shni
viloyatga sihatgohga
ketayotganligi sababli
saylov kuni ovoz berishda
ishtirok eta olmayman, –
deydi Andijon shahridagi
«Ma'rifat» mahallasida

yashovchi Ra'noxon
Muhammedova. – O'zim
yashaydigan hududdagi 50-
saylov uchastkasiga kelib
komissiya a'zolariga murojaat
qildim, ular menga qonunlar
doirasida muddatidan oldin
ovoz berish imkonini yaratib
berdi.
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti saylovini
o'tkazuvchi 2- Andijon
okrugi saylov komissiyasi
tomonidan taqdim
etilgan ma'lumotlarga
ko'ra, joriy yil 4-iyulga
qadar viloyatdagi saylov
uchastkalarida 11 622 nafar
saylovchi muddatidan oldin
ovoz berdi.

F. UBAYDULLAYEV,
O'ZA



- 19-YUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -



MAQSADIMIZ - BIR!

- NAMANGANLIK TADBIRKORLAR XUSUSIY BANK OCHISH TASHABBUSI
BILAN CHIQA, BIZ, ALBATTA, ULARGA YORDAM BERAMIZ. UMUMAN,
TADBIRKORLARNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUQOBIL TIZIMLARI
JORIY QILINADI. JUMLADAN,

NAMANGANDA ISLOM MOLIYAVIY XIZMATLARIGA

KENG YO'L OCHIB BERILADI.

3 700 KILOMETR SUV TARMOQLARI VA 371 TA

SUV INSHOOTI BARPO ETILADI VA TA'MIRLANADI. BU ORQALI 123 TA MAHALLAGA
(360 MING AHOLI) ILK BOR ICHIMLIK SUVI OLIB KELINADI. NATIJAIDA

2030-YILGA BORIB

VILOYAT AHOISINING TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANISH DARAJASI
90 FOIZGA YETKAZILADI (HOZIRDA 80 FOIZ).

Shavkat Mirziyoyev

Namanganlik
saylovchilar bilan
bo'lgan uchrashuvdagi
nutqidan

Milliy

SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2023

– BUXORODA

2030-YILGA QADAR MAHALLALARDA 50 TA YANGI OILAVIY

POLIKLINIKA VA SHIFOKORLIK PUNKTI QURILIB,

200 TASI TO'LIQ TA'MIRLANADI.

MURAKKAB OPERATSIYAGA MUHTOJ, TUG'MA YURAK NUQSONI BOR


MING NAFARDAN ORTIQ BOLALARNI DAVLAT HISOBIDAN DAVOLASH

TASHKIL ETILADI. BU ISHLARGA BUXORO UCHUN YILIGA **30 MILLIARD**
SO'MDAN AJRATAMIZ. SHUNINGDEK, BUXORODA XALQARO XALQ TABOBATI
MARKAZI VA FARMATSEVTIKA KLASTERI TASHKIL QILINADI. BUNING UCHUN

50 MILLION DOLLAR INVESTITSIYA JALB QILAMIZ.

Shavkat Mirziyoyev

Buxorolik saylovchilar
bilan bo'lgan
uchrashuvdagi
nutqidan



milliy



- IYUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -

MAQSADIMIZ - BIR!

- NAVOIYDA KELGUSI YETTI YILDA VILOYATDAGI OILALARNING MAKTABGACHA TA'LIMGA BO'LGAN EHTIYOJI 100 FOIZGA TO'LIQ QOPLANADI (HOZIRDA QAMROV 82 FOIZ). SHU MAQSADDA, VILOYATDAGI BARCHA MAHALLALARDA JAMI 310 TA DAVLAT VA XUSUSIY BOG'CHALAR TASHKIL ETILADI. BUNGA BARCHA MANBALAR HISOBIDAN

1,5 TRILLION SO'M YO'NALTIRILADI.

BUNDAN TASHQARI,

2030-YILGA QADAR YANGI MAKTABLAR

BARPO ETISH VA MAVJUDLARINING QUVVATINI OSHIRISH HISOBIGA, QO'SHIMCHA 40 MING O'QUVCHI O'RNI YARATILADI. NATIJADA, VILOYATDA 30 NAFARDAN KO'P BOLA TA'LIM OLADIGAN BIRORTA SINFLAR QOLMAYDI (HOZIRDA BUNDAY SINFLAR SONI 1 200 TA).



Shavkat Mirziyoyev

Navoiylik saylovchilar
bilan bo'lgan
uchrashuvdagi
nutqidan



SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2023

– SURXONDARYO VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIMGA BO'LGAN EHTIYOJ
100 FOIZ QOPLANADI. BUNING UCHUN **2 MINGTA** YANGI DAVLAT VA XUSUSIY
BOG'CHALAR TASHKIL ETILADI (HOZIRDA 60 FOIZ). ZAMONAVIY MAKTABLAR
BARPO ETISH, ULARNING QUUVATINI OSHIRISH, XUSUSIY SEKTORGa SHAROIT
YARATISH HISOBIGA,

2030-YILGA QADAR QO'SHIMCHA 100 MINGDAN ORTIQ O'QUVCHI O'RNINI YARATILADI.

SHU BILAN BIRGA, VILOYATDAGI BARCHA MAKTABLAR ZAMONAVIY
KOMPYUTER SINFLARI VA INTERAKTIV DOSKALAR BILAN JIHOZLANADI.

Shavkat Mirziyoyev

Surxondaryolik
saylovchilar bilan
bo'lgan uchrashuvdagi
nutqidan



miniy

15



- IYUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -



MAQSADIMIZ - BIR!

- QASHQADARYODA TIBBIYOT SOHASIDA **37 TA POLIKLINIKA,**
95 TA OILAVIY SHIFOKORLIK PUNKTI TASHKIL ETILADI, DAVOLASH
O'RINLARI 12 MINGTAGA YETKAZILADI. QARSHI SHAHRIDAGI TARQOQ

5 TA SHIFOXONA NEGIZIDA "ONA VA BOLA" KLAISTERI BARPO ETILADI. NISHON, CHIROQCHI, KOSON, QARSHI VA SHAHRISABZ

SHAHARLARIDA ZAMONAVIY TUG'RUQ
KOMPLEKSLARI QURILADI
(550 DAVOLASH O'RNI). KELGUSI
YILLARDA 800 NAFAR EHTIYOJMAND
AYOLLAR VA ULARNING VOYAGA
YETMAGAN FARZANDLARINI
DAVOLASH XARAJATLARI DAVLAT
TOMONIDAN QOPLAB BERILADI.

Shavkat Mirziyoyev

Qashqadaryolik
saylovchilar bilan
bo'lgan uchrashuvdagi
nutqidan



milliy

16

Chorshanba 5-iyul, 2023-yil №20 (1208)

SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!

SAYLOV
2023


SAMARQAND, PASTDARG'OM, OQDARYO VA TAYLOQ TUMANLARI HUDUDIDAN 18 MING GEKTAR YER MAYDONI SHAHAR TARKIBIGA O'TKAZILADI. VILOYATNING MA'MURIY MARKAZI SHAHARNING TARIXIY MARKAZIDAN BOSHQA HUDUDGA KO'CHIRILADI. SAMARQAND SHAHRIDA SUV TA'MINOTI VA YO'L TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHGA QO'SHIMCHA

270 MILLION DOLLAR AJRATILADI.

SHAHARDA JAMOAT TRANSPORT TIZIMI TO'LIQ MODERNIZATSIYA QILINADI. BU MAQSADLAR UCHUN

40 TA YANGI AVTOBUS YO'NALISHI, AEROPORT, TEMIR YO'L VOKZALI

VA TARIXIY MARKAZLARNI BOG'LAYDIGAN 5 TA EKSPRESS
AVTOBUS YO'NALISHI TASHKIL QILINADI.



Shavkat Mirziyoyev

Samarqandlik
saylovchilar bilan
bo'lgan uchrashuvdagi
nutqidan



Chorshanba 5-iyul, 2023-yil №20 (1208)

milliy

17



- IYUL O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
SAYLOVI KUNI

MILLIY QADRIYATLARIMIZNI, TILIMIZ,
URF-ODAT VA AN'ANALARIMIZNI
QADRLAYOTGAN, XALQIMIZ MANFAATINI HAR
NARSADAN USTUN QO'YAYOTGAN NOMZOD -

SHAVKAT MIRZIYOYEVGA OVOZ BERING!



MAQSADIMIZ - BIR!

— ODAMLARIMIZNING UY-JOYGA EHTIYOJINI TA'MINLASH MAQSADIDA
2030-YILGA QADAR

25 MING OILAGA MO'LVJALLANGAN 500 TA KO'P QAVATLI UY

BARPO ETILADI. VILOYATDA ENG DOLZARB BO'LGAN ICHIMLIK SUVI
MASALASIGA E'TIBORNI YANADA KUCHAYTIRAMIZ. KELGUSI YILDA
ZARAFSHON DARYOSIDAN **160 KILOMETR** MAGISTRAL QUVURNI
TORTISH HISOBIGA BAXMAL, G'ALLAOROL, SHAROF RASHIDOV,
DO'STLIK, PAXTAKOR, MIRZACHO'L TUMANLARI VA JIZZAX SHAHRIDAGI
600 MING AHOLINING SUV TA'MINOTI TUBDAN YAXSHILANADI. SUV
TA'MINOTI OG'IR BO'LGAN 100 TA MAHALLADA
2 MING KILOMETR ICHIMLIK SUVI TARMOQLARI O'TKAZILADI. NATIJADA,
320 MING AHOLI ILK BOR TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANADI.
UMUMAN, **2030-YILGA** QADAR VILOYAT AHOLISINING
MARKAZLASHGAN ICHIMLIK SUVI TA'MINOTI **90 FOIZGA** YETADI.

Shavkat Mirziyoyev

Jizzaxlik saylovchilar
bilan bo'lgan
uchrashuvdagi
nutqidan

Milliy



MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI..

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog' in ko'zinga aylab to' tiyo.
Nechun vatan, deya yeru osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho.

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku, butun Osiyo.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Bog'larin jannat, deb ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlayman tuprog' ini men,
O'paman, tuprog' ing bebaho, Vatan!

Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng
Nechun bu tuprog' deb yig' ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog' i, qashshoqmidig sen?

Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Sababini aygin, desalar menga.
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eligan bo' lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo' lsayding,
Mehrim bermasdim o'sha muzlarga?

Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog' unisin mangulik muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring chun
Sevgan farzand bo' lsa, kechirma aslo!

Abdulla ORIPOV



O'ZBEKNING

Uzun tular oylardanam uyvolgan,
Ayollari tolsa sevilib tolgan.
Qora ko'zi bor yurakka ishq solgan,
Tog' lardagi jayronidir O'zbekning.

Oybarchini – bor Barchindir,
Ertakmas,
Alpomishdan tug' olmagan erkakmas,
Do'st yukiga yetka tutib, tog' i past,
Hama olam hayronidir O'zbekning.

Uylarida g'ichirlaydi hamon sinch,
Nodirasi mozorida yotsin tinch,
Har bolasi to so'nggi dam yukingich,
U bir Ka'ba – vayronidir O'zbekning.

Bilmam. Oллоh gul berganmi, xas bergan,
Ne bo'lsa ham dilyn sarxush, mast bergan,
Nodiraga kaniz bo' lib sas bergan
Halimasi, biyronidir O'zbekning.

Halima XUDOYBERDIYEVA

INSON

Sobitu sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing.
Mulki olam ichra bir
Hoqon o'zing, sulton o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams – dil taftingdadir,
Sayyoralar kaftingdadir,
Keng jahon zabtingdadir,
Bog' bon o'zing, posbon o'zing.

Bu yorug' dunyo nadur?
Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur,
Mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shohu gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Sen balo, ham muftalo,
Xayr ila kin, rostu riyo,
Fitnagar olam aro
Fatton o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,
Piri adovat gohida,
O'z diling dargohida
Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

Xormisan yo gulmisan,
Tojdormisan yo kulmisan,
Chug'zmisan, bulbulmisan,
Nodon o'zing, xushxon o'zing.

Bu hayot o'rmon ekan,
Jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan,
Sirtlon o'zing, jayron o'zing.

Bu hayot ummon ekan,
Ummon abad gardon ekan,
Qatradek sarson ekan,
Sarson o'zing, gardon o'zing.

Mash'ali fikrat – sening,
Ham changali vahshat sening,
G'ayratu g'afat sening,
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qildingu oyda xiron,
Ham yerda qon to'kding harom,
Ushbu holindan mudom
Xandon o'zing, g'iryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,
Chiqding funun osmoniga,
Bu jahon ayvoniga
Arkon o'zing, vayron o'zing.

Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog' i arz obod erur
Sendin agar imdod erur,
Yo'qsa u barbod erur,
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,
Tavrot, Zaburdin yuksalib,
Boymisan yoki g'arib,
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,
Irg, qon talash, imon talash,
Shulmi insondek yashash,
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Mamlakatga mamlakat,
Millatga millat bo'lsa qasd,
Qilg'uvchi so'ng oqibat
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onazorning – zamin,
Tanho yo'g'u boring – zamin,
Xasta bemoring – zamin,
O'g'lon o'zing, darmon o'zing.

Bag'rida yotquchi – sen,
Ne'matlarin totquchi sen,
Tig' bo' lib botquchi – sen,
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otquchi – sen,
Zuhruni uyg' otquchi – sen,
Uyquda qotquchi – sen,
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.



Kelding olamga, demak,
Yetmas uni so'rmak, yemak,
Yerni etmog'ing kerak
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

So'zga ham poyon bo' lur,
Yozsam yana devon bo' lur.
Rustami doston bo' lur,
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,
Bor bo'l mudom borliq aro.
O'zni etgil doimo
Inson o'zing, inson o'zing.

Ey, sen Erkin, sen bu kun
Yozding dilingdan bir tugun,
Sen kimu ne dahri dun,
Biyron o'zing, nodon o'zing.

Erkin VOHIDOV



CHO'LI IROQ

Tarixni so'zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin «Cho'li iroq» ni.
Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.
Bu kuy asrlarning baridan tortib
Cho' larda toliqqan horg' in karvonday
Ming xil taqdir larni ustiga ortib,
Qalbindan jimirlab o'tadi qonday.
Tarixning eng olis qatlamlarida
Armonda uxlagan orzu-alamlar.

Dunyo manglayiga ajin tushirgan,
Dardni, qarilikni yaratgan g'amlar.
Sahro chechagining ayanch kulgisi,
Yong' irdan jon kirgan tuproqning isi,
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.
Tuya bo'yimdagi qo'ng' iroqlarning
Tashmalik eslatgan jarangi bo' lib
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.
Tarixni so'zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin «Cho'li iroq» ni.
Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.
Haddidan oshganga uni chalib ber,
Do'stlar diydorini g'animat bilmay,
Sarobga shoshganga uni chalib ber!
Chalib ber, chalib ber, andisha qilmay.
O'timishni so'zlama, o'g'it kerakmas,
Shu kuyi bir marta chalib bersang bas.

Saida ZUNNOVA



IQROR

O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtini ko'rdim, qancha taqdirar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog' laring izimdan ergashib yurar.

Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin,
Bitta tandirigga alishmasman men.

Na gapga ko'nayin,
Na til bilayin,
Ko'zdan uyqu qochdi, dildan halovlat.
Uch kunda sog'insam nima qilayin?..
Chala qolar bo' ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuprog' menga.
Bahorda Baxmalda tug' ilgan qo'zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Muhammad YUSUF



O'Z VATANI BOR BO'LSIN

Andiz o'sgan yerlarda otlar bevaqt o'lmag'ay,
Yaxshi bo'lsa ayollar erlar yuzi so'lmag'ay.
Qaysi yurtida chinakam botir ersa yigitlar,
O'sha yurtning ellari yovlarga qul bo'lmag'ay.

Ot minmagan ot minsa, chopa-chopa o'ldirar,
Bog' ko'rman bog' ko'rsa, payhon qilar, so'ldirar.
Hushyor bo'lgil, jon elim, elday saqla elingni,
Yovlaringga qo'l bersang paymonangni to'ldirar.

Bosh kesilsa, yorollar, sochga motam tutilmas,
Qon qusilsa, yorollar, ichga suvdek yutilmas.
Qay bir millat tuprog' in toptar ekan makkor yov,
O'zligin bilmaganning baxti aslo butunmas!

Arg'umog'larga mining, g'olib qilich yor bo'lsin!
Bu dunyoda har kimning o'z Vatani bor bo'lsin!

Azim SUYUN

? – Farzandim xususiy maktabda o'qiydi. Farzandlari xususiy maktab yoki bog'chalarga boradigan ota-onalarga daromad solig'i bo'yicha qandaydir imtiyozlar bormi?

Nilufar Qobiljonova,
Toshkent shahri

– Ha, bor. Soliq kodeksining 378-moddasiga ko'ra, farzandlari nodavlat ta'lim tashkilotlariga boradigan ota-onalar tomonidan har bir farzandining o'qishi uchun har oyda 3 mln. so'mgacha pul to'lansa shu to'langan mablag' daromad solig'idan ozod qilinadi.

Soliq qo'mitasi Matbuot xizmati

? – Menga intizomiy jazo qo'llanilganligi sabab sifatida ko'rsatilib mukofot puli berilmadi. Xodimga nisbatan intizomiy jazo qanday hollarda qo'llaniladi?

Hasan Xudoyberdiyev,
bank xodimi

– Amaldagi Mehnat kodeksining 301-moddasiga asosan, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishi xodimni intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Intizomiy qilmish deganda xodim tomonidan o'z mehnat majburiyatlarini aybli tarzda, g'ayriqonuniy ravishda bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tushuniladi. Agar xodimning o'z mehnat (lavozim) majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi xodimga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuz bergan bo'lsa (xodimning o'z mehnat vazifalarini bajarish uchun ish beruvchi tomonidan zarur shart-sharoitlar ta'minlanmaganligi, fors-majior holatlari va hokazolarda), xodimni intizomiy javobgarlikka tortishga yo'l qo'yilmaydi.

Adliya vazirligi
Axborot xizmati



? – Bog'chada tarbiyachi bo'lib ishlayman. Yaqinda o'qituvchi va tarbiyachilar bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi haqida eshitdim. Shu to'g'rimi?

Marina Mustayeva,
Nukus shahri

– To'g'ri, yil davomida sohada mehnat qilgan o'qituvchi va murabbiylarga yozgi ta'til davomida hordiq chiqarish imkoniyatini yaratib berish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi yangi tashabbus bilan chiqdi. Unga ko'ra, joriy yilning 1-iyulidan 1-avgustigacha yurtimizda "O'qituvchi va murabbiylar salomatligi oyiligi" aksiyasi o'tkaziladi. Bu davrda mamlakatimizdagi ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan barcha maktab o'qituvchilari va bog'cha tarbiyachilari profilaktik va chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklar hamda skrining tekshiruvidan o'tkaziladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi
Axborot xizmati

? – Bolalarim yoz faslida tez-tez ichak kasalliklari bilan og'riydi. Nega bu kasallik aynan yoz mavsumida ko'payadi? Uning ilk belgilarini qanday bilsa bo'ladi?

Javohir Nazarov,
Mingbuloq tumani

– Kasallik kelib chiqishiga asosan gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik sabab bo'ladi. Yoz mavsumida ho'l meva hamda sabzavotlar ko'p iste'mol qilinadi. Ularni yuvmasdan yoki chala yuvib yeyish oqibatida og'iz orqali organizmga tushgan bakteriya va viruslar ichburug', dizenteriya, salmonelloz kabi o'tkir yuqumli ichak kasalliklarini qo'zg'atadi. Kasallikning ilk belgilarida holsizlik, ko'ngil aynishi, qusish, ich ketishi, tana harorati ko'tarilishi, qorin og'riishi, dam bo'lishi kabi holatlar kuzatiladi.

Dilorom Tursunova
Sanitariya-epidemiologiya
qo'mitasi

? – Farzandim bu yil 1-sinfga chiqishi kerak. Ariza hamda hujjatlarni onlayn topshirsam ham bo'ladimi? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Akbar Mirvohidov,
Navbahor tumani

– Ha, bo'ladi. Umumta'lim maktablarga 2023-2024 – o'quv yili uchun o'quvchilarni 1-sinfga onlayn qabul qilish imkoniyati mavjud. Siz my.maktab.uz elektron platformasi orqali barcha hujjatlaringizni onlayn topshirishingiz mumkin. Lekin, joriy yilning 20-iyulidan 31-iyuliga qadar faqat birlashtirilgan mikro-hudud bo'yicha arizalar yuboriladi, 1-avgustdan 15-avgustga qadar esa mikro-hududdan tashqari hududlar bo'yicha ham arizalar qabul qilinadi.

Maktablarni oltin va kumush medal bilan tugatgan o'quvchilarga Oliy ta'lim muassasalariga kirishda imtiyoz beriladimi?

Hamida Hakimova,
Sariosiyo tumani

– Yo'q. 2023-yil boshida OTMlarga kirishda beriladigan imtiyozlar ro'yxati tasdiqlangan. Unga ko'ra, kirish imtihonlarida 41 turdagi imtiyozlar mavjud. Biroq ular orasida oltin va kumush medallari bitiruvchilar yo'q. Garchi maktab bitiruvchilari uchun beriladigan oltin va kumush medallar maktablarning barcha baholari a'lo bo'lgan, yaxshi xulq-atvorli va jamaot ishlarida faol o'quvchilarga berilsa ham, medallarning hech qanday imtiyozi yo'q.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Axborot xizmati

QOHIRADA «BULOQ» DEGAN JOY BOR...

Buloq so'zi tanish so'z, shunday emasmi?

Lekin internetdagi rus va inglizcha matnlarga qarasangiz, bu so'z yunoncha «φυλακή – bojxona» so'ziga borib taqalishi aytiladi. Shu o'rinda bir asosli savol tug'iladi: Xo'sh, bu da'volarning qaysi biri to'g'ri?

Tabiiyki, turkchasi to'g'ri. Bu o'rinda yevropalik tadqiqotchilarning har yerdan birinchi o'rinda «Yevropa izini qidirish odati pand bergan deyish mumkin. Baraka topkurlar, Qohirani musulmonlar qurgan-ku. Yunonlar Misir davrida bu yerda ko'zga ko'rinarli biror shahar bo'lmagan, boshqa yunoncha toponimlar ham yo'q.

Qohirada musulmonlar asos solgan. So'ng uni uzoq asrlar mobaynida mamluklar boshqargan. Mamluklarning asosiy qismi turkiy tilda so'zlashgan. Mamluklardan toponimlar, masjidlar, turkiy adabiyot va boshqa meros saqlanib qolgan. Buloq toponimi mana shulardan biri.

Misir Usmonlilar qo'lga o'tgach, yana turklar hukmronligi davom etgan.

Aynan Usmonlilar davrida «Buloq» musulmon Sharqining muhim madaniy markaziga aylangan. XIX asrning birinchi yarmida, kelib chiqishi alban bo'lgan Usmonli siyosatchisi,

Misir podshosi Muhammad Ali «Buloq»da bosmaxona ochgan. Bu bosmaxonada litografik yo'l bilan ko'plab kitoblar chop etilgan. Shu jumladan turkiy tili kitoblar ham. Ularning ayrimlari Xivagacha yetib kelgani Nuryog'di kitobida yozilgan.

Uzoq o'tmishda turkiy sulola asos solgan bir bandargohda boshqa turkiy sulola tashkil qilgan bosmaxona olis Markaziy Osiyo kutubxonalariga yetib borgan. Bu yana bir bor til umumiyligining foydalaridan biri va murakkab madaniy aloqalarga qiziq misol bo'lishi mumkin.

@AsanovEldar



«MILLIY
TIKLANISH»
DEMOKRATIK
PARTIYASINING
LITIGIY-
SIYOSIY
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abror POLATOV,
Amridin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATKONOV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJOONOVA,
Shahzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPON,
Nodir MUXTOROV,

Bosh muharrir:
Mirodiddin ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT
MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda
ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyati
kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri
tahririyat nuqtayi
nazaridan farq qilishi
mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar
doimiy e'tiborida bo'lib,
ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI
MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Mabhuba KARIMOVA,
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODIYAEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharq» nashriyoti-
matbua aksiyadorlik
kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru /
mtiklanish@gmail.ru

ISSN 2010-7714



2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligi
tomonidan № 0223 raqami bilan
ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni
chiqadi.

Adadi – 7 331.
Gazetaning bahosi hisoblangan narxda.
Qo'g'oz beshimi: A3. Hajmi: 5 bosma
taboq
Buyurtma: G – 716
Bosilgan tarqatish vaqti 21:00.
Topshirildi 2:40